

**TOSHKENT FOJEASI: ZILZILA 1966-YIL**

Sulaymonov Mirjalol Mirzamurod o'g'li

“Ijtimoiy-siyosiy fanlar instituti ”

Magistr: “Tarix” yo'nalishi 2-kurs talabasi

Anotatsiya: ushbu maqolada 1966-yil 26-aprelida Toshkentda sodir bo'lgan zilzila hodisasining tarixiy-geologik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-gumanitar jihatlarini kompleks ravishda ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda zilzilaning seysmik xususiyatlari, shahar infrastukturasiga yetkazgan talofatlari hamda qayta qurish ishlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Toshkent zilzilasi, seysmik faollik, shahar qayta qurilishi, infratuzilma, tarixiy fojea, seysmologiya, demografik o'zgarishlar.

Insoniyat oldida hali yechib ulgurilmagan bir qator tabiat hodisalari borki ular tarixan juda ko'plab fojealarga zamin hozirlagan. Eng qizig' tomoni bu hodisalar tarixan eng qoloq quldorchilik davridan to bugungi insoniyat yuqori taraqqiy etgan sivilizatsiyalashgan davrda ham bu silkinishlarni toxtatishning butkul iloji yo'q. ammo shunsi aniqki bu seysmik faollik ortidan minglab insonlar uysiz va boshpanasiz yana minglab go'daklar ota onasiz bo'lib qolganiga tarix guvohlik beradi. Ayni shunday qora harflar bilan bitilgan yana bir tarixiy fojea aynan biz yashab turgan Toshkent shahrida yaqin o'tmishda sodir bo'lgani va bu zilzila natijasida juda ko'plab insonlar halok bo'lgani va yana shuncha odamlar tibbiy xizmatga muxtoj holga kelgani omadi kelganlar esa boshpanasiz qolganliklarini birma bir muhokama etamiz.

Tarixan olib qaraganda Toshkent shahri eski seysmik faol mintaqalardan biri bo'lganligini 1866-1868 yillarda sodir bo'lgan zilzila va uning oqibatlarida ko'rish mumkin. Xususan 1866 – yilgi aprelda sodir bo'lgan zilzila oqibatida ko'plab jome masjidlarining gumbazlari jumladan, Xoja Ahror Valiy majidi gumbzi o'prilib tushgani shuningdek, juda ko'plab uylar va imoratlar qulab tushgani oqibatda ko'plab qurbonlar berilganligi haqida tarixnavis Muhammad Solihning:



“Tarixi Jadidai Toshkand” asarida mufassil yozilgan albatta. Bu zilzilaning insonlar ayniqsa shahar infrastrukturasi qanchayin zarar yetkazib madaniy hayotni, ijtimoiy muhitni qay tarzda ishdan chiqazganligi xususida ayni shu asarda ham mufassal qarshlar mavjud. Afsuski ming yillik tariximiz bunday musibatlariga to’lib-toshgan. Xususan 1868-yilning mos ravishda qaytalanuvchi seysmik faollik kuzatilib uning shkalasi 7-8 balni tashkil etib shu yiling fevral va aprel oyida sodir bo’lgan jarayonlar daxshatli statistic raqamlarni qoldirgan. 1886-yil 29-noyabridagi, 1924-yilning 7-iyunidagi, 1946-yilning 3-noyabridagi zilzilalar tahlili shuni ko’rsatadiki seysmik faollik shkalasi o’rtacha 7-8 balldan 8-9 balgacha borib yetgan. Bunday zilzilalar aholi orasida sarosima va vahima uyg’otishiga qaramay o’sha kezlari osmono’par binolar va ko’p qavatli binolarning juda kam ekanligi xarakterli bo’lib, bu esa qurbonlar va talofatlar soni kam bo’lishini ta’minlagan deyish mumkin. Ammo barib Toshkent va Toshkentliklar bu hodisaga birinchi bor ro’baro’ kelmaganini eslatish maqsadga muvofiq albatta.¹

Yuqorida biz bir qator tarixiy faktlar va voqealarni tiklash asnosida avvalo qadim Toshkent dioridagi bunday talofatlar ko’lamiga zilzila xavfini ancha avval aniqlab bo’lmasligi va uning shiddatli va ayni vaqtda juda tez bir necha sekundlarda sodir bo’lishini inobatga olish lozim deb o’ylayman. Keng ma’noda tabiat hodisalari ichida eng xavli turlaridan biri ham aynan zilzila xavfi bo’lib uni aniqlash va oldinini olish texnikasi hanuz mavjud emas. Albatta seysmologik ogohlantirishlar mavjud ammo bu ham yetarli va mufassal yechim emas. Ayni chog’da to’laqonli mavzuga qaytish asnosida biz 1966 yilning 26-aprelining erta tongida taxminiy vaqt bilan tonggi 05:23 da sodir bo’ladi. Zilzila magnitudasi rixter shkalasi bo’yicha 5.2 deya baholangan, aslini olganda bu juda yuqori zilzila hisoblanmaydi. Ammo Toshkent fojeasiga tegishli muhim jihat shuki zilzila o’chog’i ancha yer yuzasiga yaqin ya’ni yuqorida bo’lishi uning ta’sir potensialini oshirib yuborishga bosh sabab bo’lib, bu o’z o’rnida 8-9 balli shkalani yuzaga keltiradi va haqiqiy fojeaga zamin yaratadi. Zilzila aslini olganda maksimal faollik 10-12 sekundda sodir bo’lib o’tadi. Ammo achinarlisi shundaki shu 12 soniyalik tebranish o’n kvadrat killometr maydoni

¹ Tashkentskoe zemletreseniye 26 aprelya 1966g. T.: 1971.



qamrab olgan talofatlarga sabab bo'ladi. Voqea oqibatida rasman sobiq SSSR rahbariyati 8 kishini vafot etganligini va yana yuzlab odamlarning vafot etganini qayd etgan. Ammo ochiq qolmagan ixtilofli manbalarga qaraganda vafot etgan va beadarak yo'qolganlar soni yuzdan – to'rt yuzgacha deya baholanib tan jarohatini olganlar soni bir necha mingga yetishini qayd etishadi. Albatta bu masshtabdagi zilzilada jabrlanganlar va vafot etganlarni aniq tahlil qilish murakkabligi bor gap. Qo'shimcha o'rnida shuni aytish joizki bu hodisalarda deyarli biron bir paxsa devorlar qolmay yiqilganligi va guvalakdan tarkib topgan uylarning deyarli barchasi qulab tushganligini shu bilan birga mahalliy vaqt bilan soat tonggi 05:23 ekanligini hisobga olsak sobiq Sovetlar bergan informatsiyalarning naqadar nohaqqoniy noadekvat ekanligini oshiqcha tushinirishning zarurati yo'q nazarimda.²

Zilzilaning natijasida Toshkentning markazi butkul vayron bo'ladi. Ikki million kvadrat metrdan ortiq yashash maydoni 236 dona ma'muriy binolar, 700 dan ortiq savdo va umumovqatlanish obyektlari, 26 dona korxona, 181 dona o'quv muassasasi, 185 dona tibbiyot, 245 ta sanoat komplekslari jiddiy shkastlandi va aksariyatini qaytadan tiklashga to'g'ri keldi. Yanada achinarlisi anyni bahor kezlarida uch yuzmingdan ortiq tub aholi boshpanasiz qolishi edi. Ayrim manbalar uysiz qolganlar sonini bundanda ziyod ekanini qayd etadi. Umuman bu manbalar biroz kamaytrib ko'rsatilganligiga xususan bizda shubha yo'q. Boisi sobiq SSSR rahbariyati har qanday fojeani albatta nazoratda tutishga va yopdi-yopdi qilishga doimo har paythar sohada shay edi. Xullas faktlarga tayanib aytganda o'sha paytdagi Toshkent aholisi soni bir milliondan ko'proq ekanligini inobatga olsak jabrlanganlar va boshpanasizlar ro'yxati yanada kattalashishi tabiiy albatta. O'sha paytdagi Sovet hukumatining qaroriga binoan vayron bo'lgan uylar o'rniga zamonaviy ruhdagi ko'p qavatli uylar qurilishi boshlab yuboriladi va bu jarayon uch yarim yidan ortiqroq davom etadi. Shu vaqt oralig'ida shahar qaytadan tiklanadi. Shuni alohida qayd etish kerakki vayronada qolganlarni qutqazish ularga yordam ko'rsatish va vayron bo'lgan hududni tiklash maqsadida qardosh respublikalardan turli ko'rinishda

²² Sadikov A. C; Akramov Z.M; Bazarbayev A.; Mirzayev T.M.; Adilov S.R.; Geographical atlas of Tashkent.; Moscow 1984. 60-64 B.



yordamlar: ishchi kuchi, texnika, moddiy va tibbiy yordamlar oqib kela boshladi. Nafaqat yordam va texnikalar balkim uy joy qurilishida ham ularning roli ancha salmoqli bo'ldi. Masalan Rossiya 330 ming, Ukrainiya 160 ming, Ozarbayjon 35 ming, Qozog'iston 28 ming, Belarusiya 25 ming, Litva 20 ming, Armaniston 15 ming, Tojikiston 8 ming, Qirg'iziston 11.5 ming Moldova 6 ming, Estoniya 5.4 ming kvadrat metrga teng turar joylarni barpo etganligi taqsimga sazovor albatta.³

O'z o'rnida shaharni qayta tiklash va unga yordam berish jarayoni ham o'ziga xos tarzda tashkil etildi. Bu jarayon haqida gapirganimizda avvalo fuqarolarning shaxsiy va jamoaviy pullarini yig'ib yordamga yo'naltiruvchi jamg'arma tashkil qilingani va unda rubl hisobida 10 milliondan ziyod yordam puli yig'ilganligini qayd etish o'rinli albatta. Shu mablag'ning 5.5 million rubliyakka tartibdagi binolarni ta'mirlash uchun tuman ijroiya qo'mitasi orqali o'z egalariga ya'ni ta'mirtalab xonadon egalariga yo'naltirilgan. Qolgan qismi esa uy-joyini yo'qotganlarning vaqtinchalik boshpanasi yeb-ichar va kiyim-kechagi uchun ajratildi.

Poytaxtni qayta qurish uchun qo'shni davlatlardan minglab ishchilar jalb qilindi. 1966 yilning dekabrda qurilishning birinchi bosqichi tugatildi. 300 mingdan ortiq aholi uy joy bilan ta'minlandi. O'sha vaqtdagi zilziladan SSSR Kom. Partiyasi markaziy qo'mitasi birinchi kotibi Sharof Rashidov unumli foydalangani, toshkentni tiklash uchun SSSRdan yetarli yordam ola bilganligini qayd etish joiz. O'sha vaqtdagi o'zbek hukumatining favqulotda vaziyatlarda harakatlanadigan tashkilotsiz ham to'la baho bera olganini yuqori baholash mumkin. Zilziladan o'n yil o'tib 1976 yil 20-may kuni hodisaga atab toshkentda "Jasorat Manumenti" o'rnatiladi.

Zilzila ortidan o'sha yilning oktabr oyida Sobiq ittifoqda birinchi bo'lib O'zbekiston fanlar Akademiyasi tarkibida seysmologiya instituti ham tashkil etildi. Institutning asosiy vazifalari sifatida zilzilalarning sababini o'rganish ularni sodir bo'lishini oldindan bilish mumkin bo'lgan tadqiqot olib borish edi.⁴

³Roscoe Wright, James. Industrialized building in the Soviet Union : {a report of the U.S delegation to the USSR } U.S Government printing office 1971. -15bet.

⁴Bubis I.I. {September 1966}. Engineering analysis of the aftereffects of the Tashkent earthquake, april 26, 1966.



Xulosa qilib aytganda Toshkentda sodir bo'lgan zilzila shuni ko'rsatadiki kishilik jamiyati birinchi navbatda inson tabiat hodisalari oldida ojizligicha qolmoqda. Ammo bu hodisalar bizni ko'proq faollikka asosan ilmiy yangliklar va bu boradagi qarashlarni o'zgartish birinchi navbatda isloh qilish shart. O'sha davr muqolibili bo'yicha qaralganda esa shundoq ham ijtimoiy murakkabliklar va iqtisodiy tanglik vaziyatidagi ko'p sonli va eski uslubda uy joyga ega soda zahmatkash xalqimiz uchun avvalo bu keskin zarba bo'ldi. Bu zarbaning birgina iqtisodiy tomoning o'ziyoq kishini o'ylantirib qo'yadi/ masalan ma'lum manbalarda toshkentdan o'n besh minnga yaqin oila o'z xohishi bilan boshqa viloyat va qardosh respublikalrga ko'chib o'tgani qayd etilishining o'ziyoq iqtisodiy tanglikdan qochishga intilishni o'zida mujassam qiladi. Boshqa tomondan Toshkentni tiklash maqsadida kelgan aksariy ishchilarning Toshkentda muqim o'rnashib qolishi va anana va urf-odatlar qarama-qarshiliginig paydo bo'lishi masalasi negadir kam muhokama qilinadi. Yana boshqa tomondan Sharof Rashidov boshliq hukumatning say-harakatlari ortidan Toshkent tez oyoqqa turdi hamda yangicha uslubdagi ko'p qavatli binolar qurilishi sohasiga ilk tamal toshini qo'ydi va bu ham ayni chog'da yangicha binokorlik va qayta qurish va qayta tiklanishni o'ziga xoslashtiribgina qolmadi balki eski shaharga yangicha qiyofa ham baxsh etganini qayd etmasdan iloj yo'q. Ammo har qanday holatda ham bu fojea o'nlab qurbonlar yuzlab jabrdidalar va yuz minglab boshpanasizlarni vujudga keltirib insonlarning doimiy hayotini ma'lum vaqtga izdan chiqazdi. Bu hodisadan xulosalar olgan holda sesmik nobarqaror hudularimizda xavfsizlikni qayta talil qilishimiz va uni yangi, ishonchli, zamonaviy bosqichga olib chiqib aholi hayotini bunday favqulotda holatlardan ko'z qorachig'imizdek saqlashimiz shart va zarurdir.